

A LOOK AT THE HISTORY OF THE ART OF EMBROIDERY

Muzropova Guljamol Mardonovna

Navoi State Pedagogical Institute

Department of Fine Arts and engineering graphics

teacher. muzropovagulzamol@gmail.com

Rustamova Charos Norbota qizi

Navoi State Pedagogical Institute

Design direction talalaba 2nd Stage Student

rustamovacaros8@gmail.com

Anotation: This scientific article shows information that will help to study the traditional applied art of the Uzbek people, to further develop modern folk applied art.. At the same time, there will be an impetus to preserve the traditions of the activities of embroidery schools. Looking back at history, we see how many recognized examples of traditional applied art exist. We witness that the art of embroidery has developed to the point of extinction, that artisan Masters, by default from one another, have carried out more recent research into folk applied art and contribute to the prosperity of Applied Art in every possible way.

Keywords: Embroidery history, applied arts, values, teacher-disciple traditions, pattern, ethnomethics, semantics, craft schools, traditions, Masters, appreciation, tools, craftsmanship, symbols, embroidery, flower images, geometric shapes.

KASHTACHILK SAN'ATI TARIXIGA NAZAR

Muzropova Guljamol Mardonovna

Navoiy davlat pedagogika instituti

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası

o'qituvchisi. muzropovagulzamol@gmail.com

Rustamova Charos Norbo'ta qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti

Dizayn yo'nalishi talalabasi 2-bosqich talabasi

rustamovacaros8@gmail.com

Anotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada o'zbek xalq an'anaviy amaliy san'atini o'rganish, zamonaviy xalq amaliy san'atini yanada rivojlantirishga yordam beradigan ma'lumotlar ko'rsatilgan.. Shu bilan birga kashtachilik maktablari faoliyati an'alarini saqlab qolishga turtki bo'ladi. Tarixga nazar solar ekanmiz, naqadar an'anaviy amaliy san'atning tan olingan namunalari mavjudligini ko'ramiz. Kashtachilik san'atining yo'qori darajada rivojlanganligi, hunarmand ustalarning bir biridan andoza olgan holda, xalq amaliy san'atiga yanada yangi izlanishlar olib borishganligi va amaliy san'atning har tomonlama ravnaq topishiga hissalarini qo'shishganligiga guvoh bo'lamiz.

Kalit so'zlar: Kashtachilk tarixi, amaliy san'at, qadriyatlar, ustoz-shogird an'analari, naqsh, etnomadaniyati, semantikasi, hunarmandchilik maktablari, an'alar, ustalar, qadrlash, asbob-uskunalar, hunarmandchilk, ramzlar, naqqoshlik, gullar tasvirlari, geometrik shakllar.

Kashtachilk tikish kasbi, amaliy san'atning qadimiy. sohalaridan biridir. Arxeologik topilmalar kashtachilkning deyarli barcha xalqlarida qadiymiligini, iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda har bir xalqning madaniyati, san'ati, kasb-hunar turlari bilan birga, ularning ta'sirida rivoj topganini ko'rsatadi. Kashtachilkning paydo bo'lishi teridan qilingan kiyimlarda bog'lam va

choklarning yuzaga kelishi bilan bog'liqdir. Davrlar davomida toshdan suyak bigizlarga, undan metall bigizlarga o'tish bilan, shuningdek, to'qish, mato to'qish, bo'yash va boshqa ishlar bilan bog'liqdir. Kashtachilik taraqqiyotini Qadimiy Osiyo, Yevropa, Amerika madaniy yodgorliklari, adabiy manbalardagi kashtalar tasvirlarida saqlanib qolgan. Kashtachilik mahsulotlarining eng qadimiy nusxalari saqlanmagan. Kashtachilik rivojlangan xalqlarda unga tasviriy san'atning ta'siri katta bo'lgan. XI asrga oid ingliz kashtalarida jang lavhalari aks ettirilgan. XII asrga mansub rus kashtalarida Vizantiya ikona san'atining ta'siri ko'zga tashlanadi. Xitoyda XIV asrdan „syuxua“ (ignali tasvir) nomi bilan mashhur bo'lgan kashtali namoyonlar uslub jihatdan shoyiga tush bilan ishlangan manzara janriga yaqin.

Yevropada kashtachilik Uyg'onish davrida yuqori pog'onaga ko'tarildi. Davrning buyuk rassomlari kashtachilar uchun andazalar tayyorlab berishgan, bu esa kashtalarning badiiyligini oshirgan. Kashtachilikda qimmatbaho toshlardan ham foydalanilgan, ip, jun, ipak, zar va kumush suvi berilgan iplar ishlatilgan. XVIII asrda Yevropada aslzodalar kiyimini bezashda kashtalardan foydalanib tayyorlangan kashtachilik buyumlari keng tarqalgan.

XIX asrning 2-yarmida kashta tikish mashinasi ixtiro etilgach, sanoati rivoj topgan mamlakatlarda kashtachilik korxonalari vujudga kela boshladi, ishlab chiqarishni yo'lga qo'yilishi an'anaviy kashtachilikni inqirozga uchratdi. Kashtachilikdagi mavjud an'analar susayib ketdi, arzon baho mashina kashtalari katta mahorat va ko'p mehnat talab qiladigan qo'l kashtalarini siqib chiqardi. Lekin bir qancha mamlakatlarda mashina kashtasi bilan bir qatorda qo'lda kashta tikishga alohida e'tibor berilmoqda, kashtado'zlarning ishlari muzeylarni, jamoat binolarini bezab kelmoqda.

O'rta Osiyoda kashtachilik mahsulotlarining qadimiy xillari ayrimlari bugungi kunda ham saqlanib qolgan. Muzeylardagi palak, so'zana, choyshab, kirpech, zardevor singari badiiy buyumlar va kashtali kiyimlar faqat XIX asrga mansub. XIV-XV asrlarga oid kitoblardagi miniatyuralar kashtachilikning bu yerda qadimdan keng rivojlanganini ko'rsatadi. Jumladan, Amir Temur saroyida yashagan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo o'z esdaliklarida saroyda kashta bezaklarini tomosha qilganini yozgan. Behzod „Zafarnoma“ qo'lyozmasiga ishlagan „Temur taxtda“ miniatyurasida (1467) kashtali chodirni ham aks ettirgan.¹

O'rta Osiyoda, ayniqsa, o'zbek, turkman, tojik ayollari orasida Kashtado'zlik keng tarqalgan. Kiyimlar oilada tayyorlangan, badiiy buyumlar (so'zana, kirpech, dorpech, choyshab, oynaxalta, choyxalta va b.)ning asosiy qismlari har bir xonadonning o'zida tayyorlangan.

Kashta choklari, kashta tikish va uslublarining turli-tumanligi kashtado'zlarning katta san'atidan dalolat beradi. Shu jumladan oz yurtimizda ham kashta anjayin tarzda rivojlangan bo'lib, buni bugungi kunda viloyat muzeylarida saqlanib kelayotgan ekponantlardan bilishimiz mumkin. Masalan, Nurota, Buxoro, Samarqand kashtachilik mahsulotlari ko'proq yo'rma chok b-n, Shahrisabzda yo'rma, kandaxayol, iroqi, Toshkentda esa ko'proq bosma chok bilan tikilgan. Ijtimoiy hayotda ro'y bergan o'zgarishlar kashtachilik an'alariga, mahsulotning turlariga ta'sir ko'rsatgan. Masalan, hozir bo'g'joma, dorpech, oynaxalta kabi ashyolar o'z ahamiyatini yo'qotdi, paranji, kaltacha kabi kiyimlarni faqat muzeylardagina uchratish mumkin. Do'ppi, sumka, nimcha, kavush, kirpech, so'zana kabi badiiy buyum va ashyolar zamonaviy did bilan bezatilmokda, shakl va badiiy bezaklarida katta o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbek kashtado'zlari buyum bezaklarida amaliy bezak san'atining boshqa turlaridagi naqshlardan andaza olganlar,

¹ Pugachenkova.G.A. Rempel.L.I. ocherki iskusstvo Sredniy Aziye. ---M.: "Iskusstvo" 1982

kashtalarda o'simliksimon tasvirlar, shox, gulband, guldastalar ko'p uchraydi. Naqsh mujassamotida asosiy bezak matoning o'rtasida bo'lib, hoshiyalar qo'shimcha bezak hisoblanadi. Lekin hoshiya bezagi mahorat bilan ishlangan kashtalar ham ko'p. Ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik, naqqoshlikda uchraydigan islmiy gul (naqsh) lar kashtachilikda ham ko'p uchrashi chizmakash (naqqosh)lar amaliy bezak san'atining turli sohalariga chizma (naqsh)lar tayyorlaganini ko'rsatadi. Kashtachilikda chizmakashlar yaratgan naqsh(gul)lar asosida kashtado'zlar badiiy buyum yaratadilar. Kashtachilikda ishlatiladigan asosiy ish qurollari: igna, ilmoqli igna, ilmoqli bigiz, angishvona, chambarak, do'koncha (kashtani matoga tortib tikish asbobi) va b.; keng tarqalgan chok turlari: bosma, kandaxayol, chindaxayol, xomdo'zi, yurma, iroqi popur, ilmoq, baxya va b.

O'zbekiston hududidagi asosiy badiiy kashtachilik maktablari XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Nurota, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, Farg'ona va Buxoroda shakllangan. Shu kunga kelib ham ushbu kashtachilik maktablari o'z an'analarini davom ettirib kelmoqdalar. Kashtachilik ancha xilma-xildir. "Duppi" yoki "qalpoq" do'ppilari nafis naqshlar bilan qoplangan, ayollar ko'ylagi "ko'ylak" va erkaklar "chapan"lari bezatilgan, o'zbek xonadoni kashta so'zani, "palak" (katta panno) yoki "parda" (parda) bilan bezatilgan. , kurpachi ko'rpa-to'shaklari bezatilgan, o'yilgan "xon-taxta" stol va sandiqlar, shuningdek, yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchun "gavor" beshiklari estetik jihatdan bezatilgan.

Kashta tikish jarayoniga tayyorgarlik alohida e'tiborga loyiqdir. Ehtimol, bu barcha turdagi tikuv va texnikani o'rganishni talab qiladigan butun san'at, murakkab. Kashtado'zlikni qo'llashdan oldin rassomlar naqsh tushunchasi haqida o'ylashadi.

Ma'lumki, har bir chizma va tanlangan rang o'zining muqaddas ma'nosiga ega. Masalan, bodom uzoq umr va manguлик timsoli, anor farovonlik va boylik ramzidir. Va o'zlarini hasad va yomon ko'zdan himoya qilish uchun ular stilizatsiya qilingan issiq qalampirni qo'llashadi.

Har bir figuraning bezaklari ipak iplar bilan yaratilgan, u takrorlanmaydi va qo'shni naqshlar bilan birlashtirilmaydi - tasavvur qilib bo'lmaydigan go'zallik namunasi shunday shakllanadi. Naqshlar boy tasavvurni, hayolning ijodiy parvozini, kashtachining mahorati va iste'dodini namoyish etadi.

Har bir amaliy san'at buyumlarining asosini naqsh tashkil etadi, shuning uchun u buyumning ajralmas qismi bo'lib, o'sha buyumning shakliga, vazifasiga va qanday materialdan yaratilishiga butunlay bog'liq bo'ladi. Rasmni naqshga aylantirishda uning (guli va hokazo) xarakterli belgilari tanlanadi. O'simlik, qush motivlarini aniq ko'rsatishga intilmay, faqat asosiy chiziqlariga bo'rttirib kontur qilib chiziladi.

Xalq orasida hunarlarning mingdan ortiq turi bo'lib, har biri alohida bir mavzu bo'lishi va talablari ham ish uslubiga mos holda qo'yiladi. Biror buyumni tikishdan oldin uning badiiy echimini o'ylab ko'rish, bezakning undagi ayrim bo'laklarining buyum yuzasiga qanday joylashtirishni, elementlarning nisbatlarini, qanday rangda tikishni, ya'ni kompozitsiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani aniqlab olish kerak. Kompozitsiya xarakteri ko'proq ritmga-naqshdagi alohida elementlarga bog'liq bo'lib, bu kompozitsiyaning ifodali bo'lishiga aniq idrok etilishiga yordam beradi.

Kompozitsiya (mujassamot) - lotincha "Kompositio" soʻzidan olingan boʻlib, toʻqish, toʻzish, bir-biriga solishtirish, naqshni gʻoyasi, xarakteri va vazifasiga, muvofiq uygʻun hamda mutanosib joylashtirish degan maʼnoni anglatadi.²

Ritm - naqsh kompozitsiyasining maʼlum bir qismi, maʼlum bir masofada doimiy ravishda bir tekisda takrorlanib kelishi boʻlib, naqshdagi harakatning oʻzluksiz va goʻzal koʻrinishini taʼminlaydi.

Simmetriya - grekcha soʻzdan olingan boʻlib, ulchovlarning bir-biriga munosibligi tushuniladi.

Assimetriya - kompozitsiyada simmetrik qonun-qoidalarining muvozanatini buzilishidir.

Stilizatsiya — tabiatdagi oʻsimlik va boshqalarning tasviri, rangi, shakli va tuzilishini badiiy usulda umumlashtirishdir.

Bizgacha etib kelgan kashtachilik namunalarini sinchiklab oʻrganib chiqilsa, shunday xulosaga kelish mumkinki, kashta naqshlari qadim – qadim zamonlardan, eramizdan oldingi davrlardan shakllanib, uygʻunlashib boyitib kelingan va shu bilan birga asosiy yoʻnalish va naqshning turli xillari saqlanadi.

Shu qatori kashtachilikda ishlatiladigan naqshlar ham oʻziga xos xarakterga egadir. Kashtachilikni oʻrganishga kirishayotgan har bir kishi naqsh elementlarini bilishi lozim. Bu elementlar naqsh ishlarining alifbosi hisoblanadi.

Kashtadoʻz ustalar tabiatdagi gul, barg, novda, gʻuncha, qush va boshqalarning tuzilishini, oʻsish qonun-qoidalarini, koʻrinishini sinchiklab oʻrganib, ulardan turli naqsh kompozitsiyalar ishlash uchun har xil elementlarni stillashtirib olganlar. Masalan gulni stillashtirib olar ekan, uning goʻzalligini qaysi holatdagi koʻrinishini tasvirlashni izlab topadi. Oʻsimliksimon naqshlar "Islimi gullar" deb ataladi. Islimi gullar oʻz navbatida, ikki tomonga ulanadigan koʻrinishda boʻladi.

Band (novda) — naqshlardagi oʻsimlik va shoxlari bir-biriga mustahkamlanadi.

Tanob — arabcha chilvir-arqon degan maʼnoni bildiradi. Murakkab naqshlar kompozitsiyasi asosini tashkil etuvchi negizi, naqsh shakl beruvchi chiziq tanob deyiladi.

Naqqosh naqsh kompozitsiyasini chizishdan oldin birinchi tanob tortib keyin novdalarni chizadi, soʻngra novdalarni yoʻnalishiga moslab gullarni joylashtirib chiqadi. Naqsh kompozitsiyasini chizishda tanob birinchi darajali chiziq boʻlib, uning ustidan hech qachon gul, novda yoki barg bosib utmaydi. Tanoblar xilma-xil koʻrinishda boʻlishi mumkin.

Barg-oʻsimliksimon naqsh elementi boʻlib, naqqoshlar tomonidan tabiatdagi oʻsimlik bargining stillashtirib olingan tasviri. Barg naqsh kompozitsiyasida toʻldiruvchi va hush beruvchi elementdir. U tuzilishiga koʻra oddiy va murakkab turlarga boʻlinadi. Oddiy barglarga uch barg; bodom barg, tol bargi va boshqalar kiradi. Murakkab barglarga esa koʻp barg, shobarg va boshqalar kiradi. Barglarning quyidagi turlari bor; shobarg eng katta barg, qush barg, koʻp barg, chor barg (turtta barg), xurmo bargi, tol, anor, qashqarcha, madohil, qoʻshbodom, qalampir, nok, sambit, butoq barg va boshqa 50 dan ortiq turlari mavjud.

² S.S.Bulatov, M.O.Ashurova Amaliy sanʼat qisqacha lugʻati. –T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1992.

Gul — tabiatdagi gullarning stillashtirib olingan tasviri boʻlib, naqsh kompozitsiyasida toʻldiruvchi va hush beruvchi element hisoblanadi. Gullarning har xil turlari boʻlib, ular oʻziga xos nomlanadi. Masalan; lola gul, chinni gul, savsar, atir, gultojxoʻroz va boshqalar.

Tuzilishiga koʻra gullar oddiy va murakkab gullarga boʻlinadi: murakkab gullarga pista gul, koʻpbargli gul va oddiy gullarga lola, oygul, nuxat gul va boshqalar kiradi. Gullar har xil tuzilishiga ega boʻlganligi uchun ularning oʻziga xos ismlari bor.

Shukufta-oʻsimliksimon naqsh elementi boʻlib, novdalarni bir-biri bilan bogʻlash va yuzalarni toʻldirish uchun xizmat qiladi.

Margʻula-qoʻsh chiziqli gajak, oʻsimliksimon naqsh elementi. Agar bir novdaning ichida ikki margʻula hosil boʻlgan boʻlsa, u qoʻsh margʻula deb yuritiladi. Agar novda bilan margʻula tasvirlangan boʻlsa, margʻulali novda deb yuritiladi. Naqsh kompozitsiyasida margʻula toʻldiruvchi element hisoblanadi.

Bofta-tanob aylanib oʻtib hosil qilgan shakl. Islimiy naqsh elementi. Boftalar toʻgʻri, egri hamda aralash chiziqlardan tashkil topgan boʻladi. Gʻuncha-tabiatdagi gʻunchalarning usta tomonidan stillashtirib olingan tasviri.

Kashta naqshlarida kishilarning tabiat hodisalari aks ettirilgan. Oʻzbek kashtasining naqshlari obrazida bu yashnab, gullab turgan bogʻ timsollarini koʻp koʻramiz. Ayrim nusxalarida hayvonotlar shakli va buyumlar (oftoba, choynak, koʻza) shunday tasvirlanadiki, ularni moviy koʻrinishlaridan, asli shaklini ajratib boʻlmaydi, balki ular oʻsimliksimon qiyofaga kirib kashtaning umumiy uslubi bilan bogʻlanib uzviylashib ketadi.

Har bir soʻzana alohida sanʼat asaridir. Albatta bunga kashtadoʻzning oʻz oldiga qoʻygan yagona maqsadidir: sanʼati va mahorati fantaziyasining koʻp qirraliligi bilan odamlar qalbiga quvonch, shodlik baxsh etishdadir. Kashtachi oʻz ijodiy fantaziyasini har bir soʻzana detallarida namoyish qilishga harakat qiladi. U gullardan – yulduzlar, guldastalar, oy, quyoshni tasvirlaydi.

Kashtadoʻz tabiat manzarasini tasvirlar ekan u borliqdagi bor oʻsimliklarni, hayvonot olamini uy – roʻzgʻor buyumlarini tikishga, tasvirlashgan – bu baxt saodatli, quvonch va shodliklarga toʻla hayot orzusi, quyosh – yorugʻlik issiqlik moʻl hosil, bu baxt va visol osoyishta baxtli hayot, oila, yulduzlar, moviy va musaffo osmon, orzu, umid, baxt- iqbol tunning mayin shabadasi, ertaning baxtli kun orzusi; oftoba – moʻl – koʻlchilik, roʻza – suv, dehqonchilik umidi, hosilning moʻl boʻlishi, oilada fayz – baraka va seroblik, serfarzandlik .

Katta dekorativ sanʼat asarlarini kishi tomosha qilar ekan uning koʻz oldida milliy arxitektura manzaralari gavdalanadi. Yaqinroqdan esa yirik – yirik shoxlar va gullar, juda yaqindan qaralganda esa naqshning nafisligi bilinadi. Sharqning koʻp xalqlari singari oʻzbek xalqlarida ham anor hosildorlikning ramzi boʻlib kelgan. Anor juda sodda shaklda beriladi: dumaloq koʻrinishi va ichidagi gul kosachasigina tasvirlanadi. Kashtalarda tasvirlangan anor ham shunga juda oʻxshaydi. Mevaning mohiyatini aks ettiruvchi donachalari, poʻstidan nur sochilayotganday, tovlanib turganday tasvirlanadi. Oʻsimliksimon bezaklarning ichida keng tarqalganlaridan yana biri lola, bodom yoki qalampir tasvirlari boʻlib, ular juda koʻp shakllarga ega.

XIX asr oxirida oʻzbek kashtachiligida qushlarga juda kam eʼtibor berilgan va ular soʻzananing bir chetiga kichik hajmda tasvirlangan. Hozirgi kunda ham kashtachilikda qushlar juda kam uchraydi. Shunisi diqqatga sazovorki, kashtachilikda hayvonlar, qushlar tasviri bezak

sifatida berilsada, kashtadoʻz boqiylikni obrazlar orqali berishga, atrof – muhitni toʻgʻri, real tushunishga harakat qilgan.

Kashta naqshlarini badiiy vositalar, uning dekorativ talqini, ranglari, buyumlarning tanlanishi va tikish texnikasi bir – biriga uzviy bogʻliqdir. Chunki kashtachilikda yuqorida koʻrsatilgan har bir talqin bir – birini toʻldiradi, boyitadi va natijada qismlari oʻzaro bogʻliq boʻlgan dekorativ badiiy asr yaratilishiga olib keladi.

Kashtachi bezaklarini matoga joylashtirar ekan, gazlamani haddan ziyod bezab ham tashlamaydi, bekorchi, boʻsh oʻrinni ham qoldirmaydi. Fon albatta, naqsh va bezakka kashta taʼsir qiladi. Shu sababli kashta fonining oq malla va boshqa rangda boʻlishiga eʼtibor bermogʻi, fonining oʻzi ham qoʻshimcha bezak ekanligini diqqat markazida boʻlishini talab qiladi. Soʻzanada gullar qatʼiy oʻlchamli, geometrik simmetrik emas, ular erkin oʻlchamsiz, taxminiy ochiladi. Shu sababli bunday dekorativ kashtalar uygʻunlashib, butun bir yaxlitlikni vujudga keltiradi. Bunda har bir gul, oʻsimliksimon chiziqlarning erkin bir – biriga bogʻlanishi umumiylikni hosil qiladi.

Bugungi kun Oʻzbekiston amaliy bezak sanʼati qadimiy anʼanalarga asoslangan holda, yangi zamonaviy mavzular bilan boyitib rivojlantirilib borilmoqda. Aksariyat badiiy hunarmandlar sohalari tiklandi. Kashtachilik buyumlariga turli xil tasviriy bezaklar berish rasm boʻldi. Amaliy sanʼatning soʻnggi yillari ichida qoʻyidagi asosiy yoʻnalishlari rivojlandi: 20 dan ortiq xalq hunarmandchiligini oʻz ichiga olgan xalq amaliy sanʼati yengil va mahalliy sanoatni oʻz ichiga olgan badiiy sanoat, koʻrgazma, interʼer va manzarali kulollik, kandakorlik buyumlari sanʼatida anʼanaviy boʻlmagan buyumlar yaratuvchi rassomlik ijodi bilan bogʻliq malakali yakka tartibdagi mualliflik bezak sanʼati. Xalq amaliy sanʼatini rivojlantirish, uning unutilgan turlarini qayta tiklash va taraqqiy ettirishda "Usto" birlashmasi muhim rol oʻynaydi. Amaliy sanʼatning barcha turlari rivojlantirilmoqda. Ustalar turli maktab anʼanalarini uygʻunlashtirib, oʻta ehtiyotkorlik bilan bezaklarni ishlatishmoqdalar. Badiiy hayotda roʻy berayotgan jarayonning taʼsiri hamda mahalliy badiiy anʼanalarning boyligi badiiy tajribada anʼanaviy boʻlmagan yakka tartibdagi mualliflik bezak sanʼatini rivojlantirmoqda.

Oʻzbek xalqi oʻzining qadimiy va boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhurdir. Buxoro viloyatidagi nodir qoʻlyozmalar, xalq amaliy sanʼati namunalari bir vaqtlar oʻzbek xalqining madaniyati naqadar yuksak boʻlganligidan dalolat beradi, chunonchi ota-bobolarimiz qurgan binolar, meʼmorchilik bezaklari, ularning rang-barangligi, geometrik va oʻsimliksimon naqshlar ularning kompozitsion tasviri zavq olishga, tarbiyalanishga, ular orqali oʻz orzu umidlarini, muhabbatlarini xalqqa izhor etishga chorlaydi. Asrlar mobaynida ortirilgan madaniy merosimiz, xalq amaliy sanʼatining ayrim turlari, ularning oʻziga xos tomonlari, haqiqiy oʻzbekcha nomlari ishlash texnologiyasi va ularni yaratgan ustalarimizning nomlari asta-sekin unutilib ketish arafasida. Shuning uchun xalqimizning asrlar boʻyi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan tarixiy yodgorliklar va boshqa amaliy sanʼatini koʻz qorachigʻidek asrash, qadrlash va ulardan foydalanish hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Madaniy meros va yuksak badiiylik milliy anʼanaviy rivojlantirishga undan foydalanish, undagi ijodiy amaliyot uslublari joriy etish, tabiiy material bilan ishlash, kishilarda ayniqsa, yoshlarda qunt chidam, qattʼiyat, xalq amaliy sanʼatining qiziqarli oʻziga xos turlariga daxldor etish maqsadga muvofiqdir. Shunday ekan oʻzbek xalq amaliy bezak sanʼati va uning turlari boʻlmish ganchkorlik, kulolchilik, misgarlik sanʼati bilan oʻquvchilarda bilim va koʻnikmalarni tashkil etish joizdir. Oʻzbek xalq amaliy bezak sanʼati ham sanʼat, ham hunar. U asrlar mobaynida ota-bobolarimiz tomonidan koʻz qorachigʻidek asrash, qadrlash va ulardan foydalanish hozirgi

davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Madaniy meros va yuksak badiiylik milliy an'anani rivojlantirish, undan foydalanish, undagi ijodiy amaliyot uslublarini joriy etish, tabiiy material bilan ishlash, kishilarda, ayniqsa, yoshlarda qunt, chidam qat'iyat, xalq amaliy san'atining qiziqarli o'ziga xos turlariga daxldor etish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim tizimida ya'ni maktab, oliy o'quv yurtlarida o'quvchi yoshlarni siyosiy-g'oyaviy va estetik ruhda tarbiyalashda, go'zallikni seza bilishga, san'at asarlarini o'rganishga, ulardan baxra olishga, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga, amaliy san'atga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, kasb tanlash, ko'nikma va dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Pugachenkova.G.A. Rempel.L.I. ocherki iskusstvo Sredniy Aziye. -M.: "Iskusstvo" 1982
2. Qosimov Q. Naqqoshlik. — Toshkent: «O'qituvchi» nashriyoti, 1982.
3. A. Hakimov " O'zbekiston amaliy san'ati haqida" Ilmiy maqola.
- 4.S.S.Bulatov, M.O.Ashurova Amaliy san'at qisqacha lug'ati. –T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1992.
5. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии, древность и средневековье.– М., изд-ва Искусство. 1982. – С. 16.
6. Muzropova G.M. "Amaliy san'atda naqshlar semantikasi".Zamonaviy san'at. Hunardan falsafagacha. Ego IV. Ilmiy konfrensiya.
7. Muzropova G. M. "Buxoro amaliy san'atining pedagogik ahamiyati".O'zbekistonning umidli yoshlari. Konfrensiyasi. 2021. 31b.
8. Muzropova G.M. "Amaliy san'atning pedagogik ahamiyati". Dopolnitel'noe professional'noe obrazovanie. Jurnal. 2021.19 b.
9. Muzropova G.M "Artistic aspects of Bukhara applied art of the XIX century 'On the of Bukhara art ceramics". Central Asian Studies. 2021. 62.example.
10. Muzropova G.M. "Expression of reality in modern uzbek fine art" . Sceience and innovation. 15.02.2023.
11. Muzropova G.M. "An'anaviy amaliy san'atda kandakorlik buyumlaridaginaqshlar semantikasi va ularning ramziy-ifodaviy xususiyatlari". Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. 191-197.2023
12. Muzropova G.M. "The importance of the traditions of the teacher and disciple in the study of the traditional applied art of Bukhara". Intent Research Scientific Journal, I February-2023.
- 13.https://scholar.google.com/citations?hl=ru&user=uMNNKdIAAAAJ&view_op=list_works&sortby=title
- 14.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=uMNNKdIAAAAJ&citation_for_view=uMNNKdIAAAAJ:d1gkVwhDpl0C
- 15.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=uMNNKdIAAAAJ&citation_for_view=uMNNKdIAAAAJ:d1gkVwhDpl0C
16. <http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/737>